



KIBERVIKTIMIZATSIYANING KRIMINOLOGIK OMILLARI VA UNING OLDINI OLISH ISTIQBOLLARI

Abdijalilova Madina G'ofur qizi

Muallif: IIV zaxirasidagi mayor

Kirish

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kibermakon va undagi huquqbuzarliklar muammosini global darajaga olib chiqdi. O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunida kiberhujum "kibermakonda apparat, apparat-dasturiy va dasturiy vositalardan foydalangan holda qasddan amalga oshiriladigan, kiberxavfsizlikka tahdid soladigan harakat" deb ta'riflanadi.¹ Bu sharoitda kiberviktimizatsiya, ya'ni shaxsning kiberjinoyatlar qurboniga aylanish jarayoni, kriminologik tahlil talab qiladigan muhim masalaga aylandi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarning kiberviktimizatsiyasi, uning sabablari, omillari va profilaktikasi dolzarb ahamiyatga ega.

Tezida kiberviktimizatsiyaning kriminologik omillari, uning voyaga yetmaganlarga ta'siri, shuningdek O'zbekiston sharoitida kiberviktimizatsiyaning oldini olish bo'yicha huquqiy va ijtimoiy istiqbollar tahlil qilinadi.

Kiberviktimizatsiyaning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Kiberviktimizatsiya – shaxsning axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi² deb ta'rif berilgan kiberjinoyatchilik qurboniga aylanish jarayoni bo'lib, uning mohiyati an'anaviy viktimizatsiyadan farq qiladi.

Kiberviktimizatsiyaning o'ziga xos xususiyati – uning makonga bog'liq emasligi. An'anaviy jinoyatlarda jabrlanuvchi va jinoyatchi muayyan joy yoki bir hududda bo'lishi kerak, kiberjinoyatlarda esa jinoyatchi va jabrlanuvchi turli davlatlar va qit'alarda bo'lishi mumkin. Bu kiberjinoyatchini aniqlash va javobgarlikka tortishni

¹ <https://www.lex.uz/docs/-5960604>

² O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

qiyinlashtiradi. Kiberjinoyatlarning yana bir muhim xususiyati – ularning yuqori latentligi va jabrlanuvchilar ko'pincha o'zlarining viktimizatsiyasi faktiga e'tibor bermasligi mumkin.

Kriminologik nuqtai nazardan, kiberviktimlikni bir necha turlarga bo'lish mumkin:

1. **Faol kiberviktimlik** – qurbonning o'zi faol harakatlari (shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish, xavfli saytlardan foydalanish, kiberjinoyatchilarga ishonish) orqali kiberjinoyatga moyil vaziyatni yaratishi.
2. **Passiv kiberviktimlik** – qurbonning himoya choralarini ko'rmasligi, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya qilmasligi tufayli jinoyat qurboniga aylanishi.
3. **Ongli kiberviktimlik** – qurbon o'z harakatlarining potensial xavfini anglagan holda xavfli xatti-harakatlarni sodir etishi.
4. **Ongsiz kiberviktimlik** – qurbon o'z harakatlarining xavfli oqibatlarini anglamasdan kiberjinoyat qurboniga aylanishi.

Voyaga yetmaganlarning kiberviktimizatsiyasi

Voyaga yetmaganlar kiberviktimizatsiyasining kriminologik omillarini uch guruhga bo'lish mumkin:

Psixologik-fiziologik omillar (yoshga bog'liq tajriba yetishmasligi, impulsivlik va tavakkalchilikka moyillik, tengdoshlar guruhi ta'siriga berilish, o'z xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalarining yetarli emasligi, o'smirlik davridagi emotsional beqarorlik);

Ijtimoiy-madaniy omillar (raqamli savodxonlikning pastligi, kiberxavfsizlik madaniyatining shakllanmaganligi, ota-onalarning kiber nazoratining sustligi, virtual muhitdagi xulq-atvor normalarining shakllanmaganligi, ijtimoiy tarmoqlarda e'tiborni jalb qilishga kuchli intilish;

Texnologik-huquqiy omillar (kibermakonda anonimligi, kiber qonunchilik bazasining rivojlanmaganligi, kiberhuquqbuzarliklarning yuqori latentligi, kiberxavfsizlik vositalarining yetarli emasligi, transchegaraviy jinoyatlarni tergov qilish mexanizmlarining murakkabligi).

Voyaga yetmaganlar orasida kiberviktimizatsiyaning quyidagi shakllari keng tarqalgan:



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Kiberbulling – bu zamonaviy aloqa vositalari orqali amalga oshiriladigan qasddan haqoratlash, tahdid qilish yoki ma'lumotlarni yetkazish. Aksariyat hollarda, kiberbulling natijasida voyaga yetmaganlarda depressiya, xavotir, o'z-o'zini past baholash kabi oqibatlar kuzatiladi.

Kiber-grooming – bu voyaga yetmaganlarga nisbatan internetda ishonchni qozonish va keyinchalik jinsiy maqsadlarda foydalanish uchun munosabat o'rnatish jarayoni. Bu jarayon ko'pincha jinoyatchi tomonidan voyaga yetmagan shaxsga sovg'alar berish, e'tibor ko'rsatish va boshqa usullar orqali ishonch qozonishni o'z ichiga oladi.

Voyaga yetmaganlarning shaxsiy ma'lumotlari (shaxsiy rasmlar, manzil, telefon raqami va h.k.) o'g'irlanishi va keyinchalik turli jinoyat maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Bu holat voyaga yetmaganlarning o'z ma'lumotlarini himoya qilish ko'nikmalarining pastligi bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasida kiberviktimizatsiyaning oldini olish uchun huquqiy asoslar shakllantirilmoqda:

O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonunida "kiberhimoya — kiberxavfsizlik hodisalarining oldini olishga, kiberhujumlarni aniqlashga va ulardan himoya qilishga" qaratilgan choralar majmui nazarda tutilgan. Mazkur qonun kiberjinoyatlarning oldini olish va ularga qarshi kurashish uchun, shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish va ularning huquqbuzarliklar qurboni bo'lishining oldini olish uchun huquqiy asos yaratadi.

Voyaga yetmaganlar kiberviktimizatsiyasining oldini olish bo'yicha amaliy choralar

Voyaga yetmaganlar kiberviktimizatsiyasining oldini olish uchun quyidagi amaliy choralarni taklif etish mumkin:

Ta'lim tizimidagi choralar:

- Maktab dasturlariga kiberxavfsizlik va kiberviktimizatsiyadan himoyalash bo'yicha maxsus kurslarni kiritish;



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

- O'qituvchilar uchun kiberviktimizatsiya belgilarini aniqlash bo'yicha maxsus qo'llanmalar ishlab chiqish;
- Maktab psixologlari tomonidan kiberviktimizatsiya qurbonlariga psixologik yordam ko'rsatish tizimini yaratish.

Oila doirasidagi choralar:

- Ota-onalar uchun farzandlarining onlayn faoliyatini nazorat qilish bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqish;
- Oilaviy kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish;
- Ota-onalar va farzandlar o'rtasida ochiq muloqot tizimini yaratish.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi choralar:

- Kiberjinoyatlar bilan kurashish uchun maxsus bo'linmalarni tashkil etish va ularning salohiyatini oshirish;
- Kiberjinoyatlarni aniqlash va tergov qilish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- Transchegaraviy kiberjinoyatlar bilan kurashish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirish;

Axborot-kommunikatsiya sohasidagi choralar:

- Kiberxavfsizlik madaniyatini ommalashtirish uchun ijtimoiy mediada ko'p qirrali kampaniyalarni tashkil etish;
- Platformalar xavfsizligini oshirish uchun internet-provayderlar va ijtimoiy tarmoqlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- Kiberviktimizatsiya qurbonlari uchun "ishonch telefonlari" va onlayn maslahat markazlarini tashkil etish.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish kiberviktimizatsiyaning oldini olish uchun muhim ahamiyatga ega:

AQSh tajribasi

AQShda "Stop Cyberbullying" va "Internet Safety 101" kabi dasturlar orqali voyaga yetmaganlar kiberviktimizatsiyasining oldini olish bo'yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Bu dasturlar doirasida o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar uchun maxsus trening kurslar tashkil etilgan.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Yevropa Ittifoqi tajribasi

Yevropa Ittifoqida "Safer Internet Programme" doirasida kiberviktimizatsiyaning oldini olish uchun kompleks choralar ko'rilmogda. Bu choralar qatoriga milliy "Safer Internet Centre" markazlarini tashkil etish, "Internet Hotline" xizmatlarini yaratish va kiberxavfsizlik bo'yicha axborot kampaniyalarini o'tkazish kiradi.

Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya kiberbulling va kiberviktimizatsiya bilan kurashish bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Bu mamlakatda "School Violence Prevention Program" doirasida maktablarda kiberbullingni aniqlash va oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar joriy etilgan.

Kiberviktimizatsiyaning oldini olish istiqbollari

Kelajakda kiberviktimizatsiya bilan kurashish uchun quyidagi istiqbolli yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Texnologik istiqbollar:

- Sun'iy intellekt asosida kiberhujumlarni aniqlash va oldini olish tizimlarini ishlab chiqish;
- Biometrik identifikatsiya tizimlarini keng joriy etish;
- Blokcheyn texnologiyalari asosida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash.

Huquqiy istiqbollar

- Kiberhuquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish;
- Xalqaro kiberxavfsizlik standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish;
- Kiberjinoyatlar bo'yicha xalqaro hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish.

Ijtimoiy istiqbollar

- Jamiyatda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish;
- Kiberxavfsizlik sohasida professional kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;
- Kibervolontyorlik harakatini rivojlantirish.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Xulosa

Kiberviktimizatsiya muammosi bugungi kunda O'zbekiston uchun dolzarb ahamiyatga ega. Bu muammo bilan kurashish kompleks yondashuvni talab etadi, jumladan huquqiy, texnologik, ijtimoiy va pedagogik choralarni o'z ichiga oladi. Voyaga yetmaganlar eng zaif qatlamlaridan biri sifatida, kiberviktimizatsiyadan himoya qilish uchun alohida e'tibor talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlik sohasida qonunchilik bazasi shakllanib bormoqda, davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda va xalqaro hamkorlik kuchaytirilmoqda. Shu bilan birga, kiberviktimizatsiya bilan kurashish uchun ta'lim tizimi, oila, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish talab etiladi.

Xalqaro tajribani o'rganish va uni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, jamiyatda kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish kiberviktimizatsiya bilan kurashish uchun istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni (15.04.2022).
2. O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni (29.09.2010).
3. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (07.01.2008).
4. Rustambayev M.X., Niyozova S.S. Viktimologiya: Darslik. – Toshkent: TDYU, 2021.
5. Zaripov Z.S. Kriminologiya. – Toshkent: TDYU, 2022.
6. Matantseva T.N., Chashkina K.S. Faktori viktimnogo povedeniya podrostkov kak sotsialnaya problema psixologicheskoy nauki // Kontsept. – 2016. – № 8. – S. 110-117.
7. UNICEF. Bola bilan bulling haqida qanday gaplashish kerak. <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/about-bullying-with-kids> (2023).
8. "Kiberxavfsizlik markazi" davlat unitar korxonasi. O'zbekiston Respublikasi Kiberxavfsizligi – 2020 yil hisoboti. <https://csec.uz/uz/news/axborot->



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

xavfsizligi-yangiliklari/uzbekiston-respublikasi-kiberkhavfsizligi-2020-yil-hisobot/ (2020).

9. Vikipediya. Kiberbulling. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kiberbulling> (2024).

10. O'zbekiston Respublikasi lex.uz portali. <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>